ANDIJON VILOYATI ANDIJON SHAHAR HOKIMINING

QARORI

2024-yil 28-sentabr | 381-1-29-Q/24 | Andijon shahar hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasiga asosan, 2024-yilda o‘smirlarni chaqiruv uchastkasida qayd etishni amalga oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni 18-moddasi hamda viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasining 2024-yil 28-avgust kungi №1609-sonli Direktiv ko‘rsatmasiga asosan, 2025-yilda umumiy o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarida 11-sinfni tamomlayotgan o‘smirlarni chaqiruv maskanida qayd etish tadbirlarini amalda bajarish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Andijon shahar Mudofaa ishlari bo‘limi (podpolkovnik D.Mullajonov)ga:

- fuqarolarni chaqiruv maskanlarida qayd etish, harbiy ro‘yxatga olish, ularni sonini, harbiy xizmatga qay darajada yaroqli ekanligini, umumiy o‘rta ta’lim va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash vazifasi topshirilsin.

2. Shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (A.Usmonov)ga:

- umumiy o‘rta ta’lim, kasb-hunar maktablari direktorlari shahar mudofaa ishlari bo‘limi bilan birgalikda o‘quv muassasalarida ta’lim olayotgan va 2025-yilda o‘quv muassasalarini tamomlayotgan o‘smirlarni chaqiruv maskanlarida qayd etilishini tashkillashtirish vazifasi topshirilsin.

3. Shahar tibbiyot birlashmasi (M. Mirzaaxmedova)ga:

- o‘smirlarni tibbiy guvohlantirishdan o‘tkazish uchun, kerakli jihozlar bilan ta’minlanish, bo‘limlar bilan birgalikda chaqiruv komissiyasining samarali ishlashini

tashkil qilish hamda o‘smirlarni sifatli va xolisona tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishi uchun zaruriy sharoitlar yaratilishini ta’minlash;

- Shahar mudofaa ishlari bo‘limi ixtiyoriga yetarli darajada malakali shifokorlar, o‘rta tibbiyot xodimlari, tibbiy jihoz va uskunalar hamda dori-darmonlar ajratib berilishini, qayd etishga kelgan fuqarolarning ko‘krak organlarini rentgen va flyurografiyadan o‘tkazishni, qayd etish komissiyasi qarori bilan davolash va tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishni *(1-ilovaga muvofiq)*, ta’lim muassasalaridan amaliy yordam ko‘rsatish uchun texnik xodimlar ajratish *(2-ilovaga muvofiq)* ishlarini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i (B.Baxromov):

- chaqiruv maskanlarida qayddan o‘tishdan bo‘yin tovlayotgan yoshlarni mudofaa ishlari bo‘limlariga kelishlarini ta’minlash bo‘yicha tushuntirish profilaktika tadbirlarini amalga oshirsin.

5. Shahardagi barcha mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari hamda maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (A.Usmonov)ga:

- mudofaa ishlari bo‘limi bilan birgalikda 2025-yilda o‘quv muassasalarini tamomlayotgan, bitiruvchi o‘smirlarni 2024-yilning oktabr-noyabr oylarida chaqiruv maskanlarida qayd etishni tashkil etish hamda fuqarolarni chaqiruv maskanlariga uyushgan holda yetib kelishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

6. “Shahar elektr tarmoqlari” korxonasi boshlig‘i (X.Xakimov):

- mavsum davomida Shahardagi chaqiruv maskanini elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Sh.Shokirov zimmasiga yuklatilsin.

Andijon shahar hokimi **G‘.Abdurahmonov**

Andijon shahar hokimining
2024-yil 28-sentabrdagi
381-1-29-Q/24-son qaroriga
1-ilova

SHAHAR KOMISSIYA TARKIBI

Komissiya raisi : Shahar Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik D.Mullajonov

Komissiya kotibasi : Shahar ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika hamshirasi Sh.Rahimova

Komissiya a’zolarining asosiy tarkibi:

№	Ism-familiyasi	Lavozimi
1	A.Yuldashev	Tibbiy komissiya katta shifokori
2	A.Yuldashev	Ichki kasalliklar shifokori
3	E.Tanyants	Ko‘z kasalliklari shifokori
4	X.Halilov	Teri-tanosil kasalliklari shifokori
5	N.Ataqulova	Ruhiy kasalliklar shifokori
6	U.Yuldashev	Quloq-tomoq kasalliklari shifokori
7	O.Djalilova	Asab kasalliklar shifokori
8	I.Aliyev	Tish kasalliklari shifokori
9	Sh.Rahimova	Bayonnoma kotibasi

Andijon shahar hokimining
2024-yil 28-sentabrdagi
381-1-29-Q/24-son qaroriga
2-ilova

2025-yilda 11-sinfni tamomlayotgan o‘smirlarni chaqiruv uchastkasida qayd etishga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish ishlarida shahardagi maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limidan amaliy yordam ko‘rsatish uchun texnik xodim ajratish

JADVALI

№	Tashkilot nomi	Muassasa nomi	Safarbarlik muddati	Izoh
1	Andijon shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Umumiy o‘rtata’lim maktabi	2024-yil 1-oktabrdan 2024-yil 30-noyabrgacha	

Izoh: *O‘quv muassasalaridan ajratilayotgan texnik xodimlar belgilangan muddatda, shahar mudofaa ishlar bo‘limiga yetib kelishlari hamda shahar mudofaa ishlar bo‘limiga safarbar etilgan texnik xodimlarning safarbarlik etilganligi to‘g‘risidagi buyruq ko‘chirmasi shahar MIBga taqdim etilishi shart.*